

NOSTROIT YALLIG'LANISHGA QARSHI DORI VOSITALAR TA'SIRIDA JIGARINING MORFOMETRIK KO'RSATGICHLARI

Usanov Sanjar Sadinovich, Dotsent,

tibbiyot fanlari nomzodi

Klinik anatomiya kafedrası

Samarqand davlat tibbiyot universiteti,

Annotatsiya. Jigar ovqat hazm qilish tizimining patologiyasi inson kasallanishi va o'lim holatlarining strukturasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari rivojlanishning buzilishi, parhezning buzilishi va ovqat hazm qilish jarayonining tarkibiy va funksional holatiga asoslangan.

Jigar ovqat hazm qilish tizimi a'zolari, qon ivishi omillari va hazm bilan bog'liq bo'lmagan gormonlar ishlab chiqarishda, qondagi zaharli moddalarni organizmdan chiqarib tashlashda, kimyoviy dorilar natijasidagi o'zgarishlarni muvozanatini saqlashda, shuningdek, tananing immun javob reaksiyalarida ishtirok etadi.

Polipragmaziya - bir vaqtning o'zida, ko'pincha asossiz ko'plab yallig'lanishga qarshi va og'riq qoldiruvchi dori darmonlarni qo'llash.

Kalit so'zlar: jigar, o't pufagi, parenxima, markaziy vena, o't yo'llari, polipragmaziya.

**МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ПЕЧЕНИ ПОД ВЛИЯНИЕМ НЕСТЕРОИДНЫХ
ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ**

Усанов Санжар Садинович, Доцент,

кандидат медицинских наук

Кафедра клинической анатомии

Самаркандский государственный медицинский университет,

Аннотация. Патология печени и пищеварительной системы занимает одно из ведущих мест в структуре заболеваемости и смертности населения. В

основе заболеваний органов пищеварения лежат нарушения развития, нарушения режима питания, структурно-функционального состояния пищеварительного процесса. Печень участвует в выработке органов пищеварительной системы, факторов свертывания крови и непищеварительных гормонов, в удалении токсических веществ из крови, в поддержании баланса изменений, вызванных химическими препаратами, а также в иммунном ответе организма.

Полипрагмазия – это одновременное применение множества противовоспалительных и обезболивающих препаратов, часто без причины.

Ключевые слова: печень, желчный пузырь, паренхима, центральная вена, желчные протоки, полипрагмазия.

MORPHOMETRIC PARAMETERS OF THE LIVER UNDER THE INFLUENCE OF NONSTEROIDAL ANTI-INFLAMMATORY DRUGS

**Sanzhar Sadinovich Usanov, Associate Professor,
Candidate of Medical Sciences
Department of Clinical Anatomy
Samarkand State Medical University,**

Annotation. Liver pathology of the digestive system occupies one of the leading places in the structure of human morbidity and mortality. Diseases of the digestive system are based on developmental disorders, nutritional disorders, and the structural and functional state of the digestive process. The liver is an organ of the digestive system, participates in the production of blood clotting factors and hormones not related to digestion, in the removal of toxic substances from the body, in maintaining the balance of changes caused by chemical drugs, and in the body's immune response. Polypharmacy - the simultaneous, often unjustified use of many anti-inflammatory and analgesic drugs.

Keywords: liver, gallbladder, parenchyma, central vein, bile ducts, polypharmacy.

Kirish: Xozirgi davrda, kasalliklarni yaxshilashga qodir bo'lgan ko'plab dori-

darmonlarni yaratish va amaliyotga joriy etish ishlarining shiddatli o`shishi kuzatilmoqda, bu bir tomondan bemorning ahvolini yaxshilashi, boshqa tomondan salomatlikka jiddiy zarar yetkazishi kuzatilmoqda [1]. Revmatik kasalliklar, tayanch-harakat tizimi bo`lmagan revmatik kasalliklar, yallig`lanish oqibatidagi nevrologik kasalliklar, og`riq sindromi va turli etiologiyali isitmalar, dismenoreya, arterial tromboz profilaktikasi va shunga o`xshash bir qancha kasalliklarda YAQD lardan foydalanish uchun ko`rsatmalar beriladi. Jigar parinxmasining zararlanishi nafaqat viruslar yoki gepatotsitlarga tabsir qiluvchi toksinlar, balki ko`plab dori vositalari bilan ham bog`liq bo`lishi mumkin [2]. Odatda, bu turdagi preparatlarga nisbatan yuqori sezuvchanlikka ega bo`lgan va insonning individual genetik xususiyatlariga bog`liq bo`lgan shaxslarda sodir bo`ladi [3]. O`tkir shikastlanish organ parenximasida gepatotsitlarga sitotoksik yoki sitolitik ta`sir tufayli, o`t suyuqligi chiqarish tizimining elementlarida (xolestatik shikastlanishlar) yoki kombinatsiyalangan bo`lishi mumkin. Turli ma`lumotlarga ko`ra, klinik jihatdan aniqlangan sariqlik holatlarining 6% dan ortig`i yallig`lanishga qarshi dori vositalariga qabul qilish bilan bog`liq [4]. Shu bilan birga, 12% hollarda etiologiyasi aniq bo`lmagan surunkali gepatit bilan og`rigan bemorlarni tekshirishda laboratoriya ko`rsatgichlari va o`zgarishi dori vositalariga qabul qilish bilan bog`liq bo`lishi mumkin

Tadqiqot maqsadi: Tajribada nostroit yallig`lanishga qarshi dori vositalar ta`sirida jigarining morfometrik va morfometrik ko`rsatgichlarini o`rganish.

Tadqiqot materiali va usullari: Ko`p qo`llanilgan nosteroid yallig`lanishga qarshi dori vositalari ta`sirida yetti oylik bo`lgan zotsiz erkak kalamush jigar to`qimalarining morfologik va morfometrik o`zgarishlarning xususiyatlarini aniqlash va baholashdan iborat bo`lgan. Jigar to`qimasining umumiy makropreparati va eksperimental yetti oylik oq zotsiz erkak kalamushlar jigar to`qimasining turli qismlaridan olingan gistologik materiallar xizmat qilgan.

Qo`yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun eksperimental, morfologik, morfometrik va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqotning beshinchi guruhidan maksadi etti oylik oq

zotsiz erkak kalamushlarga 10 kun moboynda metal zond orqali medasiga besh xildagi yani paratsetamol 15 mg/kg, aspirin 5 mg/kg, ibuprofen 6 mg/kg, deksametazon 0,1 mg/kg gidroksikloroxin sul'fat 6,5 mg/kg 10 kun davomida eritma shakilda yuborildi

Beshinchi eksperiment guruhi etti oylik ok zotsiz erkak kalamushlarining vazni 192.1g dan 248.8 g gacha, o'rtacha 220.8g gacha bo'ldi. Kalamushlarning beshinchi eksperiment guruhi jigar massasi 5.95 g dan 7.85 g gacha, o'rtacha – $4.05 \pm 0,12$ g gacha. Etti oylik oq zotsiz erkak kalamushning jigar uzunligi beshinchi eksperiment guruhda 2,5 dan 3,2 sm, o'rtacha uzunligi $2,85 \pm 0,08$ sm ni tashkil etadi.

Etti oylik oq zotsiz erkak kalamush jigarining yuqori va pastki qirg'oqlar orasidagi masofa 1,84-2,1 sm o'rtacha $1,9 \pm 0,06$ sm tashkil qiladi. Etti oylik ok zotsiz erkak kalamushning jigarining kalinligi 2,6-3,3 sm o'rtachasi $2,95 \pm 0,91$ sm ga teng.

Gepatotsitlarning ko'ndalang o'lchami 19,0 dan 25,0 mkm gacha, o'rtacha - $22,0 \pm 0,68$ mkm gacha o'zgaradi. Ular aniq chegaralar bilan ko'pburchak shaklga ega. Gepatotsitlar sitoplazmasining o'rtacha ko'ndalang maydonning ko'rsatkichlari 450,0 mkm dan 680,0 mkm gacha, o'rtacha - $565 \pm 17,51$ mkm gacha bo'ladi. 100 ta hepatotsitlarga binuklear hepatotsitlarning soni 9-17 oralig'ida bo'lib, o'rtacha $13,1 \pm 0,4$ ga teng. Kalamushlarning nazorat guruhi hepatotsit yadrolarining ko'ndalang kesimi ko'rsatkichlari 76 mkm dan 102 mkm gacha, o'rtacha – $89,0 \pm 2,7$ mkm gacha.

Jigar bo'laklarining markazida jigar tomirlarining dastlabki aloqasi bo'lgan markaziy tomirlar mavjud. Markaziy venalarning diametri 39,0 dan 61,0 mkm gacha, o'rtacha - $50,0 \pm 1,55$ mkm gacha. Portal traktlari arteriya, vena va o't yo'lini o'z ichiga olgan bo'laklar atrofida joylashgan.

Bo'laklararo venalar diametri 18,0 dan 29,0 mkm gacha, o'rtacha - $23,5 \pm 0,72$ mkm gacha. Bo'laklararo arteriyalarning diametri 9 dan 16 mkm gacha, o'rtacha $12,5 \pm 0,38$ mkm gacha bo'ladi. Sinusoidal kapillyarlar asosan radial yo'nalishda bo'laklarning markaziga yo'naltiriladi, ular markaziy tomirlarga oqib o'tadi. Bu gemokapillyarlar ko'ndalang kesimda 8,7 dan 12,0 mkm gacha kattalikka ega,

o'rtacha - $10,35 \pm 0,32$ mkm gacha. Gepatotsitning bir tomoni sinusoidga (sinusoid tomonga), boshqa tomoni esa safro kapillyarlari (safro tomonga) hosil bo'lgan qo'shni gepatotsitga duch keladi.

Xulosa: Tadqiqotning beshinchi bosqichida besh turdagi dorilardan foydalanilganda shu guruhga mansub etti oylik oq zotsiz erkak kalamush jigari morfologik (gistologik) ko'rinishi o'rganilganda, jigar to'qimasi, markaziy venada notekis to'laqonlik, sentrolobulyar gepatotsitlarda monotsellyulyar nekroz (39.8%, n=5), gepatotsitlarda sust shakllangan tomchili yog'li distrofiya o'choqlari (31.2%, n=4) aniqlandi. Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, oq zotsiz kalamushlar jigaridagi salbiy morfologik o'zgarishlar uchrash intensivligi 5-guruhda 4-guruhga nisbatan ko'p bo'ldi. Beshinchi guruhga mansub etti oylik oq zotsiz erkak kalamushlar jigari morfologik xususiyatlaridan quyidagi o'zgarishlar uchrash intensivligi ko'payganini ko'rsatish mumkin: gepatotsitlar guruhi lizisga uchragan, sinusoidal bo'shliqlar to'laqonligi (68,0%, n=9), aksariyat gepatotsitlar yadrosi giperxromli (68,0%, n=9), shuningdek, sinusoidal bo'shliqlar gepatotsitlar atrofida bir xil kenglikda (53.5%, n=7) bo'lib, gepatotsitlarda nekrozga uchragan sohada sinusoidal bo'shliqlar kengayishi va to'laqonli bo'lishi (48.5%, n=5) kuzatilgan.

REFERENCES| СНОСКИ | IQTIBOSLAR:

1. Усанов, С., Хидиров, З., & Олимова, Ж. (2023). ОҚ ЗОТСИЗ КАЛАМУШЛАР ЖИГАРИНИНГ МЕЪЁРДАГИ МОРФОЛОГИК ВА МОРФОМЕТРИК ПАРАМЕТРЛАРИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(11), 101-107.
2. Sadinovich, U. S., Erkinovich, K. Z., & Abdurafikovich, D. H. (2023). Study Of The Morphometric Indicators Of The Liver Of Album Rats Under The Effect Of 3 Different Anti-Inflammatory Medicines In Polyprogramsis. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(6), 450-455.
3. Хидиров, З. Э. ўғли Мустафоев, ЗМ (2024). ЯЛЛИҒЛАНИШГА ҚАРШИ 3 ТУРДАГИ ДОРИ ВОСИТАЛАРИНИНГ БУЙРАКЛАР МОРФОМЕТРИК КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ. *SCHOLAR*, 2(6), 12-22.

4. Mamataliyev A. R., Sh R. S., Zohidova S. H. EKSPERIMENTAL JIGAR SIRROZI SHAROITIDA PASTKI PORTO KAVAL VENOS TIZIMI MORFOLOGIYASINING ORGANILGANLIK DARAJASI //Экономика и социум. – 2024. – №. 4-1 (119). – С. 1346-1350..